

## CLIL TEXNOLOGIYASINING CHET TILI DARS JARAYONIDA QO'LLANILISHINING SAMARADORLIGI

**Murodullayeva Sarvinoz Yorqin qizi**

Navoiy davlat pedagogika instituti

"Ingliz tili va adabiyoti" yo'nalishi magistranti

[sraimova9@gmail.com](mailto:sraimova9@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lif texnologiyasi hisoblangan CLIL texnologiyasining dars jarayonida qo'llanishi to'g'risida fikr yuritiladi. CLIL ta'lif texnologiyasining maqsadi talabalarga jamiyatda faol bo'lishiga yordam berishi bilan birligida matn materialini sohaga doir kasbiy leksik terminlar yordamida ingliz tilida o'r ganish imkoniyatini berishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** CLIL, ikkinchi til, chet tili, ko'nikma, integratsiya, kompetensiya, metod.

Jahon ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida uzlusiz ta'linda chet tilini samarali o'qitish tizimi joriy etildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda chet tilini samarali va tizimli o'qitish sifatini oshirish zarurati mavjud. Hattoki, Bolonya konvensiyasi doirasida ham xalqaro ta'lifiy dasturlar qamrovining jadallik bilan kengayib borayotgani zamonaviy sharoitda talabidan chet tilini, nafaqat kasbiy nuqtai-nazardan, balki muloqotning akademik sohasi sifatida foydalanish malakasiga ega bo'lishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish to'g'risida"gi 2017-yil 27-iyuldagagi PQ-3151-sون qaroriga [1] muvofiq o'qish ingliz tilida olib boriladigan ta'lif muassasalar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari bo'yicha ta'lif jarayoni ingliz tilida amalga oshirilishi; bitiruvchilarga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (diplom) bilan birga, oliy ta'lifdan keyingi ta'lifni davom ettirish imkonini beruvchi xalqaro darajadagi tegishli TOEFL, TKT, IELTS Idp, IELTS sertifikatlar berilishi belgilab berildi.

Zamonaviy ko'nikmalar jumladan, chet tillarini o'r ganish va chet tillaridan foydalanishda bilish, tushunish, idrok etish, eslab qolishning muqobil va variativ usullarini aniqlash chet tilini o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblandi. Shu o'rinda aytish joizki, chet tilini o'qitish samaradorligini oshirish

maqsadida jahoning ilg‘or ta’lim texnologiyalarini o‘rgatishni va tajribadan o‘tgan texnologiyani milliy o‘qitish tizimiga joriy etish yaxshi natija ko‘rsatmoqda.

Shunday sifatli mexanizmlardan biri CLIL texnologiyasıdir. CLIL texnologiyasi - ikki tillikni amalga oshirish mexanizmi bo‘lib ta’lim oluvchi obyektlarda, ya’ni o‘quvchida o‘z ona tili bilan birlgilikda o‘zga tilni o‘rganish, imkonini beradi. CLIL so‘zining ma’nosi content bu “fan”, “soha”, “mavzu” bo‘lsa, language - til, integratsion - “integratsiya” aloqadorlik learning “o‘rganish” kabi so‘zlarning bosh harfli qisqartmasidan hosil bo‘lgan tushunchani ifodalaydi . CLIL texnologiyasi o‘rganilayotgan yangi mavzuni, sohani, fanni xorijiy tilda ya’ni o‘zga tilda o‘rganishni tavsiya etadi.

Boshlang‘ich o‘rta va oliy ta’limdagi CLIL ta’lim texnologiyasi uzoq vaqt davomida Yevropada til o‘qitishning biror fan, soha yoki mavzuga asoslangan shakli bo‘lib kelgani shubhasiz. CLIL ning keng miqyosida qo‘llanilishining afzalliklardan biri bu chet tilini, asosan ingliz tilini oddiy maktab o‘quv mashg‘ulotlaridan farqli ravishda, tilshunoslikka aloqador bo‘lmagan fanlarni shu tilda o‘rgatish orqali til o‘rganish imkoniyatini oshirishdir.[2]

O‘rganish obyekti til va mavzu integratsiyani tashkil etuvchi CLIL texnologiyasi odatiy chet tili darslari kamchiliklarini bartaraf etadi va muvaffaqiyatli o‘rganishga hech qanday to‘siq bo‘lmaydi.[3]

CLIL ta’lim texnologiyasi asosida talaba obyektda kengaytirilgan va integratsiyalangan holda kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. O‘rganishi rejalishtirilayotgan mavzuni bir paytning o‘zida ingliz va ona tillarida o‘zlashtirish kabi juft maqsadlarni amalga oshiradi. CLIL ta’lim texnologiyasining maqsadi talabalarga jamiyatda faol bo‘lishiga yordam berishi bilan birlgilikda matn materialini sohaga doir kasbiy leksik terminlar yordamida ingliz tilida o‘rganish imkoniyatini berishdan iboratdir.

Ikkinchidan, kontentga asoslangan tilni o‘qitishda ikkinchi til kompetensiyasining rivojlanishini xaritalashtirgan so‘nggi modellar kontentga asoslangan o‘rganish va biror fan ixtisosligida tilni o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi hamda yangi tushunchalar va ma’nolarni tushunish va integratsiya qilish uchun asosiy hisoblanadi. Mavzuni chuqur o‘rganish lingvistik shaklga e’tibor bermasdan amalga oshirilmaydi. Albatta, bu kabi texnologiya talaba uchun mavzuni o‘rganishni o‘z tilida emas balki chet tilida o‘rganishni to‘liq almashtira olmaydi, lekin bu texnologiya til o‘rganish sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga asos bo‘la oladi. Zamonaviy jadal rivojlanayotgan jamiyatda ta’limni modernizatsiya qilishning jiddiy jarayonlari mavjud bo‘lib bu o‘qituvchilar malakasini o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarning malakasini oshirishga yangicha

yondashuvni talab qiladi. shunday qilib o‘qituvchining kasbiy standartini joriy etish ta’limning ushbu bosqichida zarur bo‘lgan turli xil o‘qituvchilarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini shaklantirish va takomillashtirishga yordam beradi.

Metodning samaradorligi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi zamonaviy o‘zaro muloqotga asoslangan hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanadigan dars jarayonlarini tashkil etish hisoblanadi.

Xulosa qilganda, kasbiy kompetensiyani shakllantirish kommunikativ o‘qitish metodikasining asosi hisoblanadi. Chunki talabaning malakasi yetarli emasligi bois til muloqotida talabaning nutqi talabga javob bermaydi. Shuning uchun ham nazarimizda talabaga texnologik manba taqdimotining birinchi bosqichida, leksikani to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatilishi maqsadga muvofiqdir. Har bir darsda material taqdimoti bo‘lgani bois, so‘z boyligini egallab borish o‘qituvchi diqqat markazida bo‘lmog‘i zarur. Tadqiqot ishimizda talabalari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ingliz tilini o‘rgatishning CLIL ta’lim texnologiyasi asosida yoritilishi mavzuni ilmiy jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi, deb o‘ylaymiz. Talabalar yangi birliklardan foydalanishda situativ muhitni e’tiborga olish muhim ekanligiga ishonch hosil qildik.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 27-iyuldaggi PQ-3151-son qarori
2. M.Xoldorova, N.Fayziyeva, F.Rixsitillayeva. Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2018
3. Muñoz, Carmen. “CLIL: Some Thoughts on its Psycholinguistic Principles.” Revista española de lingüística aplicada, vol. 1, 2007
4. Coyle, Do. CLIL: Planning Tools for Teachers. University of Nottingham, 2005. “Strengthening Integrated Learning: Towards a New Era for Pluriliteracies and Intercultural Learning. «Latin American Journal of Content & Language Integrated Learning, vol. 8, no. 2, 2015
5. Bazarova, Umida Mamurjanovna. "Opportunity for ethical-esthetic training of higher education students in the vocational language."
6. Yusupova M.A. Linguistic and cultural problems in literary translation and their solution// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.48047/INTJECSE/V15I1.22 ISSN: 1308-5581 Vol 15, Issue 01 2023